

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK ONG VA MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Z.Sh.To'xtayeva – pedagogika fanlari doktori, professor

N.B.Rayimova – mustaqil tadqiqotchi

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Tayanch so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ong, atrof-muhit, ekologik tarbiya, yoshlar, ta'lim.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое сознание, окружающая среда, экологическое образование, молодежь, образование.

Key words: ecological culture, ecological consciousness, environment, ecological education, youth, education.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo bo'ylab dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Global isish, atmosfera ifloslanishi, suv va tuproq resurslarining kamayishi kabi ekologik muammolar insoniyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, o'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik madaniyat o'z ichiga tabiatni sevish, unga g'amxo'rlik qilish va atrof-muhitni asrash kabi tamoyillarni oladi.

O'zbekistonning ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlarini aks ettiruvchi qator hujjatlar qabul qilingan bo'lib, 2025-yilda qabul qilingan ushbu farmon suv va xomashyolardan samarali foydalanish, havo va tuproq sifatini yaxshilash, barqaror qishloq va o'rmon xo'jaligi, ekoturizm, yashil transport, qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligini oshirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmon qabul qilinib, mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish va ekologik jihatdan qulay yashash muhitini shakllantirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon 2024-yilda qabul qilinib, mamlakatda yashillik darajasini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va "Yashil makon" loyihasini izchil amalga oshirishga qaratilgan [1, 2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ekologik madaniyat – bu insonning tabiat bilan o'zaro munosabatini tartibga soluvchi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar majmuasidir. Ushbu tushuncha ekologik bilim, ekologik tafakkur va ekologik mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Ekologik madaniyatga ega bo'lgan yoshlar atrof-muhitni asrashga intiladi va ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida ta'lim muhim rol o'ynaydi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologik bilimlarni singdirish orqali o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish mumkin. Ta'lim jarayonida quyidagi usullardan foydalanish samarali hisoblanadi:

✓ nazariy bilim berish usulida o'quvchilarga ekologiya fanlari asosida ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida tushunchalar berish ko'zda tutilgan;

✓ amaliy mashg'ulotlar usuli tabiiy muhitga chiqib kuzatishlar o'tkazish, chiqindilarni qayta ishlash loyihalarida qatnashishda namoyon bo'ladi;

✓ ekologik loyihalar usuli – o'quvchilar orasida ekologik tadbirlar tashkil qilish, yashil hududlar yaratish va daraxt ekish kabi tashabbuslarni amalga oshirish usulidir;

✓ media va innovatsiyalar usuli esa Internet va ommaviy axborot vositalaridan ekologik ta'limda foydalanish, ekologik muammolarni yorituvchi filmlar va videoroliklarni tomosha qilish bilan bog'liq usuldir.

O'quvchi-yoshlarda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, u jamiyat va oilaning qo'llab-quvvatlashiga ham bog'liq. Ota-onalar, o'qituvchilar va mahalliy jamiyat ekologik madaniyatni

targ'ib qilishda faol ishtirok etishlari kerak. Shu bilan birga, ekologik ta'limni nafaqat maktab dasturlarida, balki kundalik hayotda ham tatbiq etish lozim [3:48].

Natijalar. Ekologik madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi strategiyalar samarali bo'lishi mumkin:

1. Ta'lim dasturlariga ekologik fanlarni kiritish – maktab va universitetlarda ekologik ta'limni kengaytirish.

2. Ekologik amaliyotlarni hayotga tatbiq qilish – chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash, ekologik mahsulotlardan foydalanish.


3. Yoshlar uchun ekologik ko'ngillilik loyihalarini tashkil qilish – ekologik aksiyalar, chiqindilarni tozalash va ko'chat ekish tadbirlari.

4. Axborot kampaniyalari va ommaviy tadbirlar – ijtimoiy tarmoqlar, televideniya va matbuot orqali ekologik masalalarni keng targ'ib qilish.

Bugungi kunda ekologik muammolar global darajaga chiqib, insoniyat oldida dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Atmosfera ifloslanishi, suv va tuproq resurslarining kamayishi, chiqindilarning ko'payishi kabi ekologik muammolar inson hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu muammolarning oldini olishda ekologik ongga ega bo'lgan, tabiatni asrash mas'uliyatini his qiladigan avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi [4:108].

Ekologik ong – bu insonning tabiat bilan o'zaro munosabatini to'g'ri anglashdan iborat bo'lib, atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat bilan yondashish va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan bilim va e'tiqodlar tizimidir. Ekologik ongning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ekologik bilimlar – tabiiy resurslar va ularning holati haqida tushuncha;
- ekologik mas'uliyat – insonning o'z harakatlari natijasini tushunishi;
- ekologik madaniyat – tabiatga g'amxo'rlik qilish, yashash muhitini asrashga doir odatlar va qadriyatlar (1-rasm).



1-rasm. Ekologik ongning asosiy tarkibiy qismlari

Ekologik ong rivojlangan jamiyat ekologik muammolarga o'z vaqtida yechim topish va kelajak avlodlar uchun barqaror muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Ekologik ongni rivojlantirishda ta'lim tizimining o'рни beqiyosdir. Quyidagi usullar ekologik tarbiyani samarali shakllantirishga yordam beradi [5:71].

1. Ta'lim jarayonida ekologik mavzularni kiritish – ekologiya fanini o'quv dasturiga kiritish, turli fanlarda ekologik masalalarga oid mavzularni yoritish;

2. Ekologik tadbirlar va loyihalar – daraxt ekish aksiyalari, chiqindilarni saralash bo'yicha tadbirlar, suv va energiyani tejashga qaratilgan kompaniyalar;

3. Tabiat qo'ynida mashg'ulotlar o'tkazish – tabiatni o'rganish ekskursiyalari, sayohatlar, ekologik laboratoriyalar tashkil etish;

4. Ota-onalar va jamiyat ishtiroki – ekologik tarbiyada oilaning ahamiyatini oshirish, jamiyatda ekologik faollikni rag'batlantirish;

5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – ekologik muammolar bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish, ekologik filmlar, hujjatli filmlar va dasturlarni targ'ib qilish.

Muhokama. Ekologik ongni shakllantirish maktabgacha ta'limdan boshlab, maktab va oliy ta'lim darajalarida davom etishi lozim. O'quvchilarga ekologik bilim va ko'nikmalarni berish orqali ularda tabiatga hurmat, uni asrashga mas'uliyat hissini shakllantirish mumkin. Maktablarda ekologik klublar tashkil etish, turli ekologik tanlov va loyihalar o'tkazish ekologik ongni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ekologik mas'uliyat — bu insonlarning tabiiy resurslarni tejash, tabiatni asrash va uning barqarorligini ta'minlash bo'yicha olib boradigan sa'y-harakatlari va majburiyatlaridir. Har bir inson va tashkilot ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak, chunki tabiiy resurslarning to'liq yetishmovchiligi yoki yo'qolishi, insoniyatning kelajagi uchun jiddiy tahdidlar keltirib chiqarishi mumkin.

Ekologik mas'uliyatning asosiy tamoyillariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

1. Tabiatni asrash – tabiiy resurslar cheklangan bo'lib, ularni asrab-avaylash va tejash zarur. Bu suv, havo, tuproq va barcha tabiiy boyliklarni oqilona boshqarishni anglatadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qarori. www.lex.uz

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya. 1972-yil. www.unep.org

3. Nazarova G. Ekologik madaniyat asoslari. –Toshkent: 2019. 45-50-b.

4. Rajabov S. Ekologik ta'lim va tarbiya metodlari. –Samarqand: 2020. 102-110-b.

5. Tojiboyev B. Ekologiya va barqaror rivojlanish. –Toshkent: 2017. 67-73-b.

REZYUME. Maqolada o'quvchi-yoshlarda ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Atrof-muhitni asrash, ekologik muammolarni tushunish va barqaror rivojlanishga erishish uchun o'quvchi-yoshlarga ekologik bilim va ko'nikmalar berish muhimligi ta'kidlangan. Shuningdek, ta'lim jarayonida ekologik tarbiyaning o'rni, samarali usullar va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье освещена проблема развития экологического сознания и культуры у студентов. Была подчеркнута важность предоставления экологических знаний и навыков студентам и молодежи в целях защиты окружающей среды, понимания экологических проблем и достижения устойчивого развития. Также анализируется роль экологического образования, эффективных методов и педагогических подходов в образовательном процессе.

SUMMARY. This article highlights the problem of the development of environmental awareness and culture among students. The importance of providing environmental knowledge and skills to students and youth in order to protect the environment, understand environmental issues and achieve sustainable development was emphasized. The role of environmental education, effective methods and pedagogical approaches in the educational process is also analyzed.